

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ


1. Аликариев Нуриддин МАТЕМАТИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВОУ.....	5
2. Abduraxmonova Manzura, Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILA FARZANGLARINI IJTIMOYILASHUVIDA MAKTAB VA MAHALLA IJTIMOYIY XODIMINING HAMKORLIGI.....	12
3. Сеитова Зухрагон ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ В СОЦИОЛОГИИ.....	21
4. Tagieva Gulsum NOGIRONLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHDA IJTIMOYIY TA'MINOTNING O'RNI.....	28
5. Kayumov Kaxramon HOZIRGI DAVRDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOYIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	36
6. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA ALGORITMIK YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	43
7. Mahammadjanov G'olibjon СОЦИОЛОГИК ТАЪЛИМОТЛАРДА ИЖТИМОЙ ОНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИГА ОИД ПАРАДИГМАЛАР ТАЪЛИЛИ.....	51
8. Masharipov Baxtiyor SHAHAR EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI INNOVASION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOYIY ZARURATI.....	57
9. Gaibnazarov Boxodir SOTSIAL BOSHQARUV TIZIMINING SAMARADORLIGI: XORIJIY TAJRIBA.....	66
10. Ixtiyarov Farxod DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	73
11. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA IJTIMOYIY ISH KADRLARINI TAYYORLASH JARAYONLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	83
12. Akhmedova Rano WELFARE AS A MEASURE OF LIFE SATISFACTION.....	90

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Tagieva Gulsum,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası dotsenti
e-mail: gt120886@gmail.com

NOGIRONLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISHDA IJTIMOY TA'MINOTNING O'RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13341864>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nogironlarni ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy ta'minot masalalari yoritilgan bo'lib, har bir inson hayoti davomida uning sog'lig'i va mehnat qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli xil xavf-xatarlarga duchor bo'lishi, bu esa asosiy tirikchilik manbai bo'lgan ish haqining yo'qolishiga olib keladi. Ko'p hollarda inson bu holatlarni o'z-o'zidan yengib chiqa olmaydi, chunki ular asosan hayotning ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan oldindan belgilab qo'yilgan, ishlab chiqarish faoliyati bilan chambarchas bog'liq va uning irodasiga bog'liq emas. Mana shu holatlarda ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarga, ayniqsa, nogironlarning ijtimoiy ta'minoti masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, nogironlik nafaqasi, nogironlik pensiyasi.

Тагиева Гульсум,
Доцент кафедры социологии и социальной работы
Самаркандского государственного университета
имени Шарофа Рашидова
e-mail: gt120886@gmail.com

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ ИНВАЛИДОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены вопросы социального обеспечения в социальной защите инвалидов. Каждый человек на протяжении всей своей жизни подвергается различным рискам, которые могут напрямую повлиять на его здоровье и трудоспособность, приводя к потере заработной платы, которая во многих случаях является основным источником средств к существованию. Во многих случаях человек не может преодолеть эти ситуации самостоятельно, поскольку они во многом предопределены объективными социально-экономическими условиями жизни, тесно связаны с производственной деятельностью и не зависят от его воли. В этих случаях освещаются вопросы социальной поддержки социально нуждающихся групп населения, особенно людей с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: социальное обеспечение, социальная защита, социальная политика, пенсия по инвалидности.

Tagieva Gulsum,
Associate Professor of the Department
of Sociology and Social Work of Samarkand State
University named after Sharof Rashidov
e-mail: gt120886@gmail.com

THE ROLE OF SOCIAL SECURITY IN THE SOCIAL PROTECTION OF PERSONS WITH DISABILITIES


ABSTRACT

This article covers the issues of social security in the social protection of disabled people. Every person throughout his life is exposed to various risks that can directly affect his health and ability to work, leading to loss of wages, which in many cases is the main source of livelihood. In many cases, a person cannot overcome these situations on his own, since they are largely predetermined by objective socio-economic conditions of life, are closely related to production activities and do not depend on his will. In these cases, issues of social support for socially needy groups of the population, especially people with disabilities, are covered.

Key words: social security, social protection, social policy, disability pension.

KIRISH

Mamlakatimizda tashkil etilgan nogironlar uchun ijtimoiy ta'minotning turlari: nogironlik pensiyalari, nogironlik nafaqalari, manzilli ijtimoiy yordamlar, ijtimoiy xizmatlar, kompensatsiyalar hamda imtiyozlar har bir ehtiyojmand fuqaroni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilganligi, har bir davlat nogironlarning hayoti va faoliyati uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga harakat qilishi, bunday harakatlar markazida ijtimoiy siyosat asosida amalga oshirilishi har tomonlama ilmiy yondashuvlar asosida ochib berilgan. Jamiyat va davlat hayotida ijtimoiy ta'minot har doim muhim o'rinlarni egallab kelgan.



1-rasm. Ijtimoiy ta'minot tizimi modellari

Dunyo aholisi ijtimoiy ta'minot tizimida quyidagi ikkita modeldan biriga amal qiladi. Birinchi model – kontenental yoki Bismark modeli. Majburiy ijtimoiy sug'urta joriy qilingan. Jamiyat barcha a'zolariga daromad topishga ijtimoiy ta'minot uchun imkoniyat yaratiladi. Davlatning asosiy vazifasi aholi daromadlarni oshirish va ijtimoiy himoyalash hisoblanib, mas'uliyat ishlovchi zimmasiga yuklatiladi. Shuning uchun imtiyozlar ishlaydigan odamlarning maqomi va daromadiga qarab tayinlanishi mumkin.

Ijtimoiy ta'minotning ikkinchi modeli – Atlantik yoki Beverdj modelidir. Bu model har bir fuqaro kasallanganda, keksayganda davlat tomonidan himoyalaniishi kerak. Davlatning asosiy vazifasi – kafolatlangan ijtimoiy himoyaning minimal darajasini ta'minlash. Mas'uliyat davlat zimmasiga yuklatiladi.

Biroq, "Bismark modeli orqali ijtimoiy sug'urtaning joriy qilinishi dunyo mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yuqori samarali sug'urta tizimlarini yaratishga imkon berdi" [1]. Bismark modeli ko'proq ijtimoiy ta'minotning pensiya turida foydalanilsa, nafaqada asosan Beviridj modelidan foydalaniladi. Asosan nogironlarni ijtimoiy ta'minotida foydalaniladigan modellardan biri bu – Beviridj modeli hisoblanadi. Albatta, mamlakatlar foydalaniladigan ijtimoiy ta'minot tizimi modellari bir-biridan farq qilishi mumkin, ammo ular foydalanadigan ijtimoiy ta'minot modellari mamlakatning rivojlanishiga bog'liq.

METODOLOGIYA

Ijtimoiy ta'minot inson hayotining mazmun-mohiyatini tashkil etishiga doir masalalarning metodologik asosi qadimdan olimlarni qiziqtirib kelgan. Ma'naviy merosimiz «Avesto»da ham insonlarni qadrlash ijtimoiy hayotning ma'no-mazmunini belgilaydigan muhim mezon ekani ta'kidlangan. Bu borada Quroni karimning "Hud" surasi 86-oyati «Agar mo'min bo'lsangizlar (harom-harish yo'llar bilan boy-badavlat bo'lgandan ko'ra) Alloh qoldirgan (halol) narsa sizlar uchun yaxshiroqdir» [2] nozil etilgan. Bunda halol mehnat, peshona teri bilan orttirilgan boylikning foydali ekanligi, haloldan topilgan boylik barakali belishini izohlash mumkin.

Buyuk Sharq mutafakkiri Forobiy o'zining asarlarida insonning boshqalar bilan bo'lgan munosabatida adolat qoidalariga rioya qilinishi zarur deb hisoblaydi. Bu borada olim "Adolatlik shahar aholisining hammasiga tegishli bo'lgan xayrli narsalarning to'g'ri taqsimlanishida va shu taqsimlanganlarning boylikni to'la saqlanib qolishida ifodalanadi. Bu xayrli narsalar, boyliklar, salomatlik, hurmat, ehtirom, martabalar va shunga o'xshash narsalar bo'lib, bulardan har bir kishi o'ziga yarasha bo'lagini olishi kerak, bulardan ko'p yoki oz olish adolatsizlikdir. Agar oz tegsa, u odamga nisbatan adolatsizlikdir, agar ko'p olsa, xalqqa, ya'ni boshqalarga nisbatan adolatsizlikdir" [3] ta'kidlaydilar. Bu borada Ibn Xaldun komil inson tarbiyasi konsepsiyasini ishlab chiqadi. Unga ko'ra "komil inson jamiyat tartibotlariga ehtiromli, o'z davlatiga vatanparvar, o'z ijtimoiy-siyosiy tuzumiga sadoqatli shaxsdir. Komil fuqaro tarbiyasi har tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi" [4], bunda komillik tizimidagi «davlat-fuqaro-inson» tartiboti Ibn Xaldunning davlat va jamiyatni mukamallashtirish iborat jarayon degan sotsiologik konsepsiyasini tashkil etadi.

Aristotel ta'limotidagi dunyoning to'rt moddiy unsurga asoslanib tuzilganligi "Avesto" ta'limotidagi muqaddaslashtirilgan suv, er, havo va olov to'g'risidagi ta'limot ta'sirida vujudga kelganligi ko'pgina Evropa tadqiqotchilari ham inkor eta olmaydi. Platonning falsafiy qarashlaridagi tabiatdan oldin mavjud bo'lgan dunyoviy aql-g'oyalar to'g'risidagi ta'limot "Avesto" bitiklaridagi Axura Mazda (qudratli aql, dunyoviy aql) to'g'risidagi tasavvurlarning ta'siri ostida shakllanganligini inkor etib bo'lmaydi. Bu borada O'rta Osiyoning qadimiy boy madaniy qadriyatlarini rivojlana bordi. IX-XII asrlarda matematika, astromoniya, tibbiyot, dinshunoslik, tarix, kabi tabiiy va gumanitar ilmlar rivoji bilan birga Yaqin va O'rta Sharqda vujudga kelgan va bevosita islomni nazariy va amaliy o'rganish bilan bog'liq bo'lgan din, shariat ilmlari ham O'rta Osiyoga kirib keldi. Bunda allomalar Imom Buxoriy, Termiziy, Motrudiy, marg'inoniy, Zamaxshariy, Nasafiy kabilar o'z asarlari bilan butun musulmon olamida mashhur bo'ldilar.

Yuqorida keltirilgan ijtimoiy ta'minot tizimi "inson uchun xizmat qilishi kerak" degan metodologik ahamiyatga ega bo'lgan qarashlar bugun ijtimoiy himoyaning mohiyati, avvalo, aholi manfaatlarini ta'minlash, ayniqsa, yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy qo'llab-

quvvatlash, ular holidan xabar olish, g'amxo'rlik ko'rsatish uchun barcha zarur shart-sharoit yaratilganligi tushuniladi. Kuchli ijtimoiy himoya O'zbekistonning milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanib, avvalo, ijtimoiy ta'minot tizimini yaxshi yo'lga quyilishini taqozo etadi.

ASOSIY QISM

Dunyo amaliyotida mamlakatlar quyidagi ijtimoiy ta'minot tamoyillariga amal qiladi [5]:

1. Mavjudligi. Ijtimoiy ta'minot ehtiyojmand aholi hamda aholining turli qatlamlari foydalanishiga qulay bo'lishi kerak;
2. Universiallik. Ijtimoiy ta'minot hech qanday cheklovlarsiz barcha rezidentlarga tegishli bo'lishi kerak;
3. Moslashuvchanlik. Ijtimoiy ta'minotning moslashuvchanligi, uning hozirgi sharoit va davlat imkoniyatlariga, fuqarolik jamiyati ehtiyojlariga muvofiqligi eng muhim atribut va dizayn tamoyiliga aylanadi.
4. Adolat. Adolat muayyan imtiyozli guruhlar yoki aniq asoslarsiz alohida fuqarolarni ajratmasdan bir xil yondashuvda ifodalanadi.
5. Mas'uliyat. Davlat va jamoat birlashmalari ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish uchun javobgar bo'lishi kerak.

Davlat byudjeti hisobidan barcha fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti amalga oshirilmaydi, balki faqat ularning ayrim toifalari uchun amalga oshiriladi, masalan: nogironlik nafaqasi, yoshga doir nafaqa, boquvchisini yo'qotganlik uchun nafaqa, 3 yoshgacha hamda 18 yoshgacha bolali oilalarga nafaqalar va boshqalar. Davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan esa ijtimoiy ta'minot asosan jamg'armaga sug'urta badallarini to'lagan shaxslarga tayinlanadi, masalan: yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari, ishsizlik nafaqalari, dafn marosimi uchun nafaqa va hokazolar. Ijtimoiy ta'minotning u yoki bu turiga bo'lgan huquq faqat tegishli holatlar yuzaga kelgandagina belgilanadi.

Masalan, yuqorida aytganimizdek, nogiron bo'lganda, dafn etganda, bola tug'ilganda, pensiya yoshiga yetib mehnatga layoqatsiz bo'lganda, ishsiz qolganda va boshqalarda. Ijtimoiy ta'minotning maqsadi fuqarolar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy mavqeini jamiyatning qolgan fuqarolari bilan tenglashtirish. Hozirgi kunda ham ijtimoiy ta'minot deganda fuqarolarning ayrim toifalarini moddiy ta'minlashga qaratilgan davlatning ijtimoiy siyosatini ifodalash shakli sifatida tushuniladi. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy ta'minot tizimi fuqarolarning barcha turdagi nafaqalar, pensiyalar, kompensatsiya to'lovlari, tibbiy yordam, ijtimoiy xizmatlar va davolanishni o'z ichiga olishi lozim.

Ijtimoiy ta'minotning tuzilishi. Ijtimoiy gumanitar fanlarda tuzilish atamasi (lot. structure – tuzilish, bog'lanish) muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi, tarkibiy qismlarning o'zaro bog'langan va ma'lum yaxlit birlikni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro ta'siri majmui tushuniladi [6]. Ijtimoiy ta'minot murakkab tuzilishga ega bo'lgan tizim bo'lib, u ijtimoiy himoyaning bir turi sifatida o'rganiladi. Ijtimoiy himoya 4 ta turi mavjud bo'lib, ular qo'yidagilar:

1. Ijtimoiy ta'minot;
2. Ijtimoiy kafolat;
3. Ijtimoiy sug'urta;
4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Ijtimoiy ta'minot – davlat tomonidan fuqarolarning ijtimoiy kam ta'minlangan qatlamlariga ularning asosiy moddiy ehtiyojlarini qondirish, ularga pensiyalar, nafaqa va boshqa ko'rinishdagi moddiy yordam va boshqa turdagi ijtimoiy yordam ko'rsatish yo'li bilan kishilarning normal xayot kechirishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berishdir» [7]. Bizningcha yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqib, muallif «ijtimoiy ta'minot» tushunchasi fuqarolarni ijtimoiy ta'minot olishining zaruriy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minot faqat kam ta'minlangan fuqarolarnigina emas, balki fuqaro kamida 7 yillik ish stajiga ega bo'lsa, I yoki II guruh nogironi bo'lsa va boshqa bir qator shartlarda kam ta'minlanganlik darajasidan qat'iy nazar, ijtimoiy ta'minot olishga haqli bo'ladi. Insoning moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan axvolda ekanligi, pensiya turlarini ya'ni, yoshga doir pensiya, nogironlik pensiya hamda boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tayinlanishiga hech bir monelik qilmaydi. Shu tufayli I.T.Tulteevning yuqorida ijtimoiy ta'minotga bergan ta'rifi – fuqarolarni

ijtimoiy himoya qilish hamda ijtimoiy himoyaga muxtoj fuqarolarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash faqat davlat byudjeti tizimi orqali amalga oshiriladi degan fikri ham unchalik qo'shilib bo'lmaydi. Chunki ijtimoiy ta'minotda fuqarolar sug'urta badallari to'lab, shu to'langan sug'urta badallari orqali pensiya turlarini hamda nafaqalarning ayrim turlarini olish huquqiga ega.

Ijtimoiy himoya turlaridan yana biri ijtimoiy kafolat hisoblanib, bu – jamiyat a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy huquqlari sohasida hayot shroitlarini ta'minlash vositalari, usullari va shartlaridir [8]. Asosiy ijtimoiy kafolatlar tegishli qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda aholiga kelib tushishi davlat tomonidan kafolatlanadigan eng kam pul to'lovlari hisoblanadi. Bularga bazaviy hisoblash miqdori, nafaqalar va boshqalar kiradi [9]. Yana boshqa manbalarda ijtimoiy kafolat – bu kasb tanlash, bandlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy faoliyat shakllari, umumiy va kasb-hunar ta'lim olish, o'z mehnat qobiliyatini ro'yobga chiqarish huquqi hamda mehnatning miqdori va sifatiga muvofiq haq to'lashdir [10].

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy kafolat bu – jamiyat ya'zolarini ijtimoiy – iqtisodiy – siyosiy huquqlarini qo'llab-quvvatlash, ularni tegishli qonunlar hamda normativ-huquqiy xujjatlar orqali davlat tomonidan kafolatlab quyish. Misol uchun, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori, har bir bolani bepul ta'lim olish, eng kam pensiya miqdori, yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash, o'rta-maxsus ta'lim olish, sog'liqni saqlash, bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz aholisining hayot uchun zarur bo'lgan turmush darajasi va farovonligini oshirish xizmatlari kafolatlangan.

Ijtimoiy sug'urta – davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta'minlash, yordam ko'rsatish tizimi. Ijtimoiy sug'urta kutilmagan ijtimoiy hodisalar turlari (kasallik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, nogironlik, keksalik, homiladorlik, o'lim hollari), hududiy doirasi (davlat sug'urtasi, mahalliy darajadagi, kasb-tarmoq, xalqaro) bo'yicha turkumlanadi, ko'ngilli va majburiy turlarga bo'linadi. Davlat sug'urta jamg'armasi, shuningdek, jamoa va xususiy jamg'armalari hisobidan amalga oshiriladi [11]. Ba'zi bir adabiyotlarda ijtimoiy sug'urta – ijtimoiy himoya tizimi bo'lib, uning vazifasi iqtisodiy faol fuqarolarning qariganda, kasallik, to'liq yoki kisman nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik, ishsizlik holatlarida moddiy ta'minotga bo'lgan huquqini amalga oshirishni ta'minlashdan iborat [12].

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy sug'urta – bu iqtisodiy faol davrda ijtimoiy sug'urta kompaniyalariga sug'urta badallarini to'lash va qariganda, nogiron bo'lib qolganda, boquchisini yo'qotganda, ishsiz qolganda va shunga o'xshash boshqa sabablar sodir etilganda ushbu mablag'lardan foydalanishga aytiladi.

Ijtimoiy himoyaning to'rtinchi turi bu - ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – ijtimoiy siyosat doirasida aholini ijtimoiy himoya qilish organlari tomonidan amalga oshiriladigan, fuqarolarning ayrim toifalariga qonun hujjatlari va huquqiy hujjatlarga muvofiq yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar [13]. Boshqa bir adabiyotlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – bu fuqaro yoki uning oilasining hayotiyligini saqlash, oshirish, normal hayotni ta'minlashga yordam berish bo'yicha chora-tadbirlar majmui [14].

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – bu asosan ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlar: xotin-qizlar, bolalar, nogironlar, kam ta'minlanganlar, yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni moddiy yordam (shu jamladan, ijtimoiy xizmatlar) hamda ma'naviy yordam (shu jamladan, psixologik yordam) berish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqib, ularni farovonligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minot ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i hisoblanib, insoniyat paydo bo'lgandan boshlab har doim unga ehtiyoj sezgan. Har qanday jamiyatda tabiiy sabablarga ko'ra o'z mehnati bilan tirikchilik manbaiga ega bo'la olmaydiganlar, ya'ni nogiron bolalar va qariyalar, vaqtincha mehnatga layoqatsizlar va nogironlar hamisha bo'ladi. Ijtimoiy ta'minot odamlarning ayniqsa, nogironlar hayotini ta'minlashning ma'lum bir shakli sifatida o'ziga xos turlarga ega, ular qo'yidagilar:

1. Pensiyalar;
2. Nafaqalar;
3. Ijtimoiy yordam [15].

Pensiya – (lotin tilida “pension” soʻzidan olingan boʻlib, tarjima qilinganda “toʻlov” maʼnosini anglatadi) kategoriya sifatida pul mablagʻlarining maqsadli fondlarini shakllantirish va keksalik chogʻida fondan foydalanish shakl va usullari yigʻindisini oʻz ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi [16]. Pensiya – belgilangan pensiya yoshiga yetganida, nogironlik yuz berganda, boquvchisi yoʻqotilganda, shuningdek, belgili muddat xizmat qilgani uchun va davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat yoki sobiq xodimlarning sobiq ish beruvchilari tomonidan muntazam pul daromadlari bilan taʼminlanishi [17]. Pensiya – bu kamida 7 yillik ish stajiga ega boʻlgan hamda Oʻzbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Qonunning 17-moddasida “Pensiya olish huquqini beradigan ish staji” jadvaliga muvofiq stajlar mavjud boʻlganda va byudjetdan tashqari pensiya jamgʻarmasiga sugʻurta badallari toʻlagan taqdirda pul daromadlari bilan taʼminlanishi.

Nafaqa – ijtimoiy taʼminot huquqiga oid kategoriya sifatida fuqarolarga yoki oilaga davlat ijtimoiy sugʻurtasi mablagʻlari, davlat byudjeti hamda boshqa maxsus manbalardan pul shaklida, muntazam ravishda yoki bir marta koʻrsatiladigan ijtimoiy yordamdan iborat boʻlib, pensiyadan farq qiladi va yordamchi xususiyatga ega boʻladi hamda fuqaro turmush kechirishning asosiy manbai hisoblanmaydi. Pensiyaga xos boʻlgan asosiy xususiyatlar - pul shaklida berilishi, qaytarib olinmaslik sharti bilan va tekinga berilishi kabilar nafaqalarga ham xosdir [18].

Bizning fikrimizcha, pensiyadan farqli oʻlaroq, nafaqa vaqtinchalik xususiyatga ega, turmush darajasini taʼminlashning qoʻshimcha manbai sanaladi va tayinlanishida nafaqa oluvchining avvalgi mehnat faoliyati hamda mehnat staji har doim ham unchalik katta ahamiyatga ega boʻlavermaydi. Qisqa qilib aytganda, pensiyada staj talab qilinsa, nafaqada staj talab qilinmaydi hamda nafaqalar asosan davlat byudjeti mablagʻlaridan toʻlanadi. Ayrim xolatlarda Byudjetdan tashqari pensiya jamgʻarmasi mablagʻlaridan ham toʻlanadi.

Ijtimoiy yordam - davlat va jamiyatning qariligi, sogʻligʻi, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik uchun vositalar bilan yetarli taʼminlanmagani tufayli aholining yordamga muhtoj qatlamlariga yoʻnaltirilgan yordam shakli hisoblanadi. **Bizning fikrimizcha, aholiga beriladigan ijtimoiy yordam - ular qatoriga qariyalar, nogironlar, boquvchisiz qolgan fuqarolardan tashqari, yolgiz keksa va yolgʻiz nogironlar, koʻp bolali va kam taʼminlangan oilalar, maktab oʻkuvchilari, urush qatnashchilari va boshqa shaxslar kiradilar.**

Yuqorida taʼkidlanganidek, hozirgi paytda aholining muhtoj katamlari oʻnlab turdagi ijtimoiy yordamlarni olmoqdalar, yuzdan ortiq shakldagi har xil imtiyozlardan foydalanmoqdalar va ana shu maqsadlar uchun davlat xazinasidan milliardlab soʻm mablagʻ sarf qilinmoqda.

Aholining ushbu tabaqalariga beriladigan ijtimoiy yordam shakllari ham rang-barang koʻrinishlarga ega boʻlib, ularni kuyidagi turlarga boʻlish mumkin:

1) qariyalar, nogironlar va bolalarni davlat taʼminotiga olish, maxsus muassasalarda yashashlarini taʼminlash;

2) yolgiz kariyalarga uylarida ijtimoiy yordam koʻrsatish va zarur oziq-ovqat maxsulotlari bilan bepul taʼminlash;

3) kariyalar, nogironlarga sanatoriy-kurort xizmatlarini koʻrsatish;

4) nogiron fukarolarga protez-ortopediya, harakatlanish vositalari berish xizmatlarini koʻrsatish;

5) maktab yoshidagi bolali oilalarga moddiy va boshqa yordamlar koʻrsatish;

6) fuqarolarning muayyan toifalariga turar joy - maishiy, transport-aloqa, soliq, tibbiy-farmasevtika va boshqa sohalarda imtiyozlar berish;

7) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdagi ijtimoiy xizmatlarni koʻrsatish [19].

Bugun Yangi Oʻzbekistonda ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida milliy strategiya ishlab chiqildi. Strategiya doirasida ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolar boʻyicha “Temir daftar”, “Ayollar daftari” hamda “Yoshlar daftari” nomli alohida maʼlumotlar bazasi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlaridan beriladigan yordam turlari yaratilib, barchasi ijtimoiy himoya yagona reestriga birlashtirilgan. Ushbu ijtimoiy himoyaga muhtoj, ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti ogʻir oilalar muammolarini bartaraf qilish maqsadida nafaqalar, pensiyalar, moddiy yordamlar va shu kabi muammolari tizimli ravishda hal etib kelinmoqda.

Ijtimoiy ta'minotning kompensatsiya, imtiyozlar, ijtimoiy xizmat hamda ijtimoiy yordamturlari ham mavjud.

Barcha rivojlangan davlatlar, shu qatorida O'zbekiston Respublikasi ham ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar: aholining kam ta'minlangan, nogiron, qarib qolganlar, ishsizlar, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni turmush darjasini yaxshilash va pasayishini oldini olish borasida doimiy ravishda islohotlar olib boradilar. Shu maqsadda ijtimoiy ta'minot shakllari va turlari, ko'rsatilyotgan yordamning prinsiplarini qayta ko'rib chiqish va uning shakllanish yo'nalishlarini rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyat taraqqiy etib borar ekan, barcha sohalar kabi ijtimoiy ta'minot sohasida ham o'zgarishlar, rivojlanishlar bo'lishi tabiiy. Ijtimoiy ta'minotning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar:

- Ijtimoiy-iqtisodiy omillar – hukumat ehtiyojmand aholini *ijtimoiy* qo'llab-quvvatlash ko'lamini yanada kengaytirishi;

- Huquqiy omillar – ya'ni, chiqarilayotgan qonunlar, qarorlar va boshqa normativ huquqiy xujjatlar kam ta'minlangan, himoyaga muhtoj, ehtiyojmand qatlamga qanday ta'sir qilishiga qarab ijtimoiy ta'minot institutlarini kengaytirish yoki qisqartirishga sabab bo'lishi mumkin;

- Texnik va texnologik omillar – bunda, ehtiyojmand qatlamlar turli xil bo'lishi mumkin, lekin bir nechta qatlamlarning ijtimoiy ta'minotini bitta dastur yoki bitta bo'lim bajara olmaydi, shu sababli ijtimoiy ta'minot institutlari yoki bo'limlar soni o'zgaradi;

- Demografik omillar – fuqarolarning tug'ilishi va o'limi, nogironlarning ko'payishi yoki kamayishi, bir so'z bilan aytganda, himoyaga muhtojlarning ko'payishi va kamayishi bilan bog'liq bo'lib, bir institutga qiyinchilik tug'dirmaslik maqsadida kengayishi yoki torayishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki:

1. Ijtimoiy ta'minot tuzilishi deganda ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga, kam ta'minlanganlar, ko'p bolali onalar, nogironlar, yolg'iz qariyalar va boshqalarni davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'arma mablag'lari hisobidan ta'minlashga qaratilgan davlatning ijtimoiy siyosatini ifodalash shakli sifatida tushunishimiz lozim. Jamiyatda ijtimoiy ta'minot adolatli amalga oshirilishi va o'z egasiga tayinlanishi muhim hisoblanadi;

2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj ehtiyojmand fuqaro qaysi vazirlikka murojaat qilishidan qat'iy nazar, u fuqaro himoyaga muxtoj deb tasdiqlangandan keyin ijtimoiy ta'minotini raqamlashtirilgan tarzida, hech qanday xujjatlar talab qilmasdan tayinlash va to'lashni tashkil etish lozim;

3. Mamlakatimizda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, turmush darajasini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda ehtiyojmand fuqarolarning ijtimoiy ta'minotini to'liq qamrab olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Роик В.Д. Экономика, финансы и право социального страхования: Институты и страховые механизмы / Валентин Роик. – М.: Альпина Паблишер, 2013. – 7 с.

2. Quroni karim. "Hud" surasi, 86-oyat. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2001. - B.231.

3. O'zbekistonda ijtimoiy-axloqiy va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. Falsafa va huquq instituti nashriyoti. Toshkent, 2007 yil.-B.64.

4. Qayumova A. Ibn Xaldun sotsiologik qarashlarida ijtimoiy tuzilmalar va munosabatlar tahlili. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. 2022 yil.

5. Рустамов Д.Р. "Ўзбекистонда пенсия жамғармасининг молиявий барқарорлигин таъминлаш йўналишлари". Икт. фан. доктори (DSc) дисс. автореферати. – Тошкент: "Иқтисод-молия", 2018. – 38 б.

6. <https://qomus.info> > struktura-uz.

7. Тультеев И.Т. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарх. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2001. – Б. 233.

8. <https://www.google.com/search?q>.

9. https://ru.wikipedia.org/wiki/социальные_гарантии.
10. Социальные гарантии Архивная копия от 14 марта 2022 на Wayback Machine//Социологический справочник / Волович В.И. и др. – Киев: Политиздат Украины, 1990. – 380 с. – ISBN 5-319-00559-8.
11. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. – Тошкент, 2000.
12. Валентин Роик. Экономика, финансы и право социального страхования. Институты и страховые механизмы. – М.: Альпина Паблишер, 2012. – 258 с. – ISBN 978-5-9614-1961-0.
13. https://ru.wikipedia.org/wiki/Социальная_поддержка.
14. Социальная поддержка / Воронин Ю.В. // Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю.С.Осипов. – М.: Большая российская энциклопедия, 2004-2017.
15. Ахмедов Д.Қ. Ижтимоий таъминот ҳуқуқи. – Тошкент: Тошкент давлат юридик институти, 2008. – 43 б.
16. Қосимова Г., Каримова З.. Бюджетдан ташқари фондлар//Дарслик. –ТМИ. 2009. – Б.39.
17. Сирожиддинова З.Х. Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими//Дарслик. – Тошкент: infoCom.UZ MChJ нашриёти, 2010. – Б.367.
18. Турсунов Ю. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий таъминот ҳуқуқи. – Тошкент: Ворис-Нашриёт, 2012. – Б.162.
19. Ахмедов Д.Қ. Ижтимоий таъминот ҳуқуқи. – Тошкент: Тошкент давлат юридик институти, 2008. – Б.181-182.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000